

Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching

Qumrinisa Saidaliyevna Usmonova

Teacher of the Faculty of Primary Education of CSPU

Annotation: The article presents the advantages of using global pedagogy in primary education and how to use it, as well as the use of foreign experiences in education.

Keywords: pedagogy of world nations, foreign experiences, “Buyuk didaktika”, “Email”, “Kundaliklar”, “Erudiga maktablari”

Xorij Tajribalaridan Va Jahon Pedagogikasidan Boshlangich Ta`Limni O`Qitishda Foydalanish.

Qumrinsa Saidaliyevna Usmonova

CHDPU boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'limda jahon pedagogikasidan foydalanishning afzalliklari va undan qanday foydalanish, hamda ta'limda xorij tajribalaridan foydalanish keltirilgan.

Kalit so'zlar: jahon xalqlari pedagogikasi, xorijiy tajribalar, “Buyuk didaktika”, “Email”, “Kundaliklar”, “Erudiga maktablar”


Аннотации. В статье представлены преимущества использования глобальной педагогики в начальном образовании и способы ее применения, а также использование зарубежного опыта в образовании.

Ключевые слова: педагогика народов мира, зарубежный опыт, “Buyuk didaktika”, “Email”, “Kundaliklar”, “Erudiga maktablari”

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni o'qitish jarayonida jahon xalqlari pedagogikasidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Jahon xalqlari pedagogikasida tarbiya masalalariga ham katta e'tibor qaratiladi. Jahon xalqlari pedagogikasida bir qator ta'limga oid tajribalar shakllantirilgan. Mazkur o'rinda ularning eng muhimlariga diqqatingizni tortamiz:

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida yosh avlodni o'qitish vositasida tarbiyalashni asoslab bergan. Bunda o'quv fanlarini o'qitish jarayoni shaxsning aqliy, axloqiy va estetik tuyg'ularini shakllantirishga, shaxsni hayotga tayyorlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Fransuz pedagogi Jan Jak Russo “Emil” asarida oila tarbiyasi masalasini talqin qilib bergen. Uning fikricha, oilada bola tarbiyasi bilan oilaning eng yetuk a'zosi shug'ullanishi



kerak. Pedagog bu borada onalarning tarbiyaviy o'mini alohida ta'kidlaydi va Emil ismli onaning o'z farzandini qanday tarbiyalaganligini, bu bu ayol "Kundaliklar" tutib borganligini ko'rsatib beradi. Shu ma'noda tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi shaxsning "Kundaliklari" bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shved pedagogi Logan Genrix Pistalotsi "Erudiga maktablar" asarida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va bunda ularni savodxon qilish masalasiga alohida tayanish lozimligini asoslab bergan. Hozirgi kunda butun dunyo xalqlarida amalda bo'lgan savodxonlikni "Alifbe" dan boshlash tizimini aynan Pistalotsi asoslab bergan.

Sharq xalqlari pedagogikasidan esa "Ustoz-shogird" tajribasi butun dunyo xalqlari ta'lim jarayoniga tadbiq etilgan.

Mazkur masalalardan ma'lum bo'ladiki, jahon xalqlari pedagogik tajribasida ko'p hollarda tarbiyaning amaliy jihatlariga e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ana shu tajribalarni o'rganishi, o'zlashtirishi va amaliy faoliyatda qo'llay olishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida jahon xalqlari pedagogikasi bilan bir o'rinda xorij tajribalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda e'tiboringizga eng muhim xorij tajribalarini taqdim etamiz.

Buyuk Britaniyada tarbiya jarayoni psixologik qonuniyatlarga asoslanadi. Unda tarbiyalanuvchilarda oliyjanoblik ko'nikmasini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Ayni paytda, ingliz tilining xalqaro tillardan biri ekanligidan foydalanib, tarbiyalanuvchilar dunyoda kasbiy faoliyat ko'rsatishga yo'naltiriladi.

Germaniyada tarbiya jarayonida asosiy e'tibor ideal g'oyalarga qaratiladi. Bunda har bir yosh avlodda ideal g'oya bo'lishiga erishish uchun qisqa va aniq tizimga ega tarbiya jarayoniga asoslaniladi. Shu sababli germaniyalik fuqarolar ko'p hollarda haqgo'yligi bilan ajralib turadi.


Fransiya tarbiya jarayonida shaxsning estetik didini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Bunda har bir frantsuz kishisi hamma narsadar estetik go'zallik izlash ruhi bilan voyaga yetkaziladi. Shu sababli Fransiyaning ta'lim tizimida ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor hisoblanadi.

Italiya tarbiya jarayonida avlodlar bilan g'ururlanish ruhi ustuvor qo'yiladi. Haqiqatan ham mazkur mamlakatdan yetishib chiqgan Suqrot, Aflatun, Aristotel va Sitseronning insoniyat ta'limiga qilgan hizmati mashhurdir.

Saudiya Arabistonida tarbiya jarayonida shaxsning e'tiqodli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bunda shaxsda sog'lom e'tiqod, diniy bag'rikenglik va odamlarni tushunuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish bilan yosh avlod voyaga yetkaziladi.

Amerika maktablaridagi ta'lim jarayonidagi o'ziga xos usullaridan biri har bir o'quvchining "Hisobot kartasi" yuritishidir. Unda o'quvchi 10 xil xatti-harakati bo'yicha baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ekan, farzandlarini oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi.

Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o'quvchilari uchun "Sevimli o'yinchoq" metodini qo'llashadi. Bu metoddan bolalar o'yinchog'ini ta'riflaydi. Mazkur metodni qo'llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bo'lishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o'rgatishdir. Amerikada ta'limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining



puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli, boy moddiy baza va tajribaga ega bo'lgan davlatda butunlay savodsiz bo'lgan bolalar ham topiladi.

Shuningdek, biz yuqoridagilarga qo'shimcha tarzida "Finlandiya ta'lim tizimi"ni ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Finlandiyada o'quvchilarni xususiyatlari yoki tanlovlariga qarab tasniflashmaydi. Ularda "yaxshi" va "yomon" o'quvchilar ham yo'q. O'quvchilarni bir-biriga taqqoslash ta'qiqlangan. Daho bolalar ham, aqliy salohiyati bo'shroq bolalar ham "o'ziga xos" hisoblanib, barcha bilan birga o'qishadi. Umuman olganda, jamoada nogironligi bo'lgan bolalar ham ta'lim oladi. Oddiy mактабда ko'rish va eshitish organlari kasalliklari bo'lgan o'quvchilar uchun sinf tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Finlandiyaliklar alohida munosabatga talabgor insonlarni jamiyatga maksimal darajada integratsiya qilishga harakat qilishadi. Bilimi kuchli va bo'sh o'quvchilar orasidagi farq – juda kichik. O'qituvchilar ham bolalarga bor mehrini beradi, "sevimlilar" ajratilmaydi. Qoidadan har qanday chetga chiqish bunday o'qituvchi bilan shartnomaga buzilishiga olib keladi. Finlandiya o'qituvchilari faqat ta'lim beruvchi vazifasini bajarishlari kerak. Jamoada barcha o'qituvchilar- fiziklar ham, adabiyotchilar ham, mehnat o'qituvchilari ham birdek teng.

Diqqat qilinsa, mazkur xorij tajribalaridan boshlang'ich ta'limda foydalanish muqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada ayniqsa, boshlang'ich ta'limda dars jarayonida o'qituvchi maqbul hisoblagan xorij tajribasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi
2. cyberleninka.ru
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-sifat-samaradorligini-oshirishda-xalqaro-tajribalardan-foydalanish>
4. Usmonova Q.S. Boshlangish ta'limda Filandiya ta'lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b
5. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s